
1-SON KASB-HUNAR MAKTABIDA BITIRUVCHILARGA DIPLOM TOPSHIRISH MAROSIMI BO'LIB O'TDI.

Tantanali tarzda tashkil etilgan tadbirda maktab o'quvchilari, ota-onalar, nuroniylar, tuman hokimligi vakillari ishtirok etdilar. Dastlab, tadbirda so'zga chiqqan tuman hokimi A.Djurabayev mamlakatimizda yoshlarni qo'llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan islohotlar hususida to'xtalar ekan, bitiruvchilarga kelgusidagi ishlariga oq yo'l tiladi. Bitiruvchi yoshlarga o'zining samimiy tilaklarini bildirib o'tdi. Ma'lumot o'rnida aytib o'tish kerakki, kasb-hunar maktabida bugungi kunda 6 ta kasb bo'yicha o'quv ustaxonalari mavjud bo'lib zamon talablari asosida jihozlangan. O'quvchilar ushbu o'quv ustaxonalarida o'quv amaliyotlarini va maxsus fanlar bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini olib borishmoqda. 2021-2022 o'quv yilida kasb-hunar maktabini 233 nafar o'quvchilar 4 ta kasb bo'yicha tamomladilar. Endi ushbu o'quvchilar tumanimiz va viloyatimizdagi kichik sanoat zonalarida, ishlab chiqarish korxonalarida va hususiy sektorlarda o'z mehnat faoliyatlarini boshlashlari mumkin. Bayram kechasida tuman hokimi A.Djurabayev hamda tuman prokurori A.Xudoyberganov bitiruvchi yigit va qizlarga turli yo'nalishlar bo'yicha diplomlar, shuningdek, yuqori ko'rsatkichlarga erishgan va namunali xulqi bilan o'rnak ko'rsatgan o'quvchilarning ota-onalariga tashakkurnomalar topshirdilar.

2022-07-16 15:12:12